

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қозоқов Собиржон Зокиржонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Sodiqova Shohida RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING KEKSALAR UCHUN IMKONIYATLARI VA XAVFLARI.....	9
2. Karimov Bobir FASILITATIV LIDERLIK – BOSHQARUVDA DEMOKRATIK JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA.....	18
3. Алексеева Виктория ОСОБЕННОСТИ ВОСПРИЯТИЯ МОЛОДЕЖЬЮ СОЦИАЛЬНЫХ ЛИФТОВ В ПРОЦЕССЕ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ.....	26
4. Якубов Ильдар СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ УПРАВЛЕНИЯ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ.....	38
5. Ахмедов Нодир ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ ФЕЙКОВЫХ НОВОСТЕЙ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ БОРЬБЫ.....	45
6. Abduraxmonova Manzuraxon, Sultonova Nazokatxon KVADROBERLAR SUBMADANIYATI – DEVIANT XULQ-ATVOR SIFATIDA.....	53
7. Alikariyeva A’loxon TA’LIM SIFATI MENEJMENTI TIZIMINI JORIY ETISH MUAMMOLARI.....	59
8. Berdimuratova Alima, Kamalova Khatira, Baymurzaev Azamat GLOBALLASIW DÁWIRINDE QARAQALPAQSTANLÍ JASLARDIŃ QÁDIRIYATLARǴA BAǴDARLANGANLÍǴI MÁSELELERI.....	67
9. Mirzaxmedov Xurshid SOTSIAL TRANSFORMATSIYA: YOSHLAR.....	81
10. Zaretdinova Nesibeli, Hakimniyazova Mavluda MEHNAT MIGRATSIYASINING DEMOGRAFIYAGA TA’SIRI.....	89
11. Mo‘minov Zokirjon IJTIMOIY MOBILLIK TURLARI: VERTIKAL VA GORIZONTAL IJTIMOiy MOBILLIK HAQIDA TUSHUNCHA.....	96
12. Узакова Зарина ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК ЭТАП ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА ДЕТЕЙ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ.....	103
13. Alimuxamedova Nodira «MILLAT» HODISASINI TUSHUNISHDA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	110
14. Radjabova Aziza GLOBAL GEOSIYOSIY VA GEOIQTISODIY O‘ZGARISHLAR VA ULARNING MINTAQAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH, NIZOLARNING OLDINI OLISHGA TA’SIRI.....	117


15. Dulanbayeva Oygul ZAMONAVIY JAMIYAT SHAROITIDA DIN VA IQTISODIY INSTITUTLARNING O'ZARO ALOQADORLIGI.....	123
16. Bekmurodov Xusan “MAHALLA YETTILIGI” – JAMIYATDA IJTIMOIIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING YANGI MEXANIZMI SIFATIDA (SOTSIOLOGIK TAHLIL).....	129
17. Samadov Shohzod FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING IJTIMOIIY TRANSFORMATSIYASIGA DOIR QARASHLAR (SOTSIOLOGIK TAHLIL ASOSIDA).....	135
18. Мирзаева Шахноза НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН: ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	142
19. Mirjavxarova Farida TRANSFORMATSION JAMIYATDA HARBIYLIK KASBI: ORIENTATSIYA VA DEFORMATSIYA (KASBIY BUZILISH) SABABLARI, OMILLARI VA UNING NAMOYON BO'LISHI.....	148
20. Xaytboev Boburjon INSON, FAN VA TEXNIKA TUSHUNCHALARI – FALSAFIY TADQIQOD OBYEKTI SIFATIDA.....	155
21. Xo'jamqulov Adham YANGI O'ZBEKISTONNING YOSHLARGA DOIR SIYOSATI: YOSHLAR IJTIMOIIY KAPITALINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA.....	162
22. Qobilov Uchqun DAVLAT BOSHQARUVINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA DAVLAT XIZMATCHILARINING KASBIY KOMILLIGINI SHAKLLANTIRISH.....	169
23. A'zamova Kumush INSON QADRINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOIIY DAVLAT MEXANIZMLARINING REGULYATIV FUNKSIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	176
24. Tajieva Dilnoz YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI VA MAVQEI: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	183
25. Xaydarova Javohira RAHBAR AYOLLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI.....	189
26. Каюмова Райхона МАХАЛЛЯ В УЗБЕКИСТАНЕ: ИСТОРИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ МЕСТНОГО САМОУПРАВЛЕНИЯ И СОВРЕМЕННОЙ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	198

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Alikariyeva A'loxon,
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti
"Sotsiologiya" kafedrasida doktoranti, s.f.n., dotsent
e-mail: alohon77@ya.ru

TA'LIM SIFATI MENEJMENTI TIZIMINI JORIY ETISH MUAMMOLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14564758>

ANNOTATSIYA

Globalashuv sharoitida kuchayib borayotgan integratsion jarayonlar va axborotlar tizimining xalqaro darajaga rivoj topishi, raqobatning kuchayishi sotsial boshqaruvga bo'lgan munosabatni foydali tomonga keskin o'zgartirishi boshqaruv tizimidagi ijtimoiy moslashuvni kuchaytiradi. Ijtimoiy jarayonlar boshqaruvining mukammallashuvi hozirgi sharoitda ta'lim tizimi axborotlarini qayta ishlab tahlil qilib, yig'ish tizimini takomillashtirishni talab qiladi. Rivojlangan raqobatchilik muhiti o'z navbatida mahsulot va xizmatlar sifatini doimiy oshirib borishni talab etgan holda ularni taqdim etuvchilarning raqobatbardoshligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif tomonidan maqolada oliy o'quv yurtlarini boshqarish mexanizmidagi sifat menejmenti tizimining xususiyatlari; uni joriy etish va amalga oshirishdan kutilgan natijalar o'rtasidagi nisbat, shuningdek, oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilari va xodimlarining ushbu boshqaruv resursiga munosabatini o'rganish maqsadida sotsiologik tadqiqotlar o'tkazilgan va tahlil natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: sifat, menejment, tizim, oliy o'quv yurti, professor-o'qituvchilar, boshqaruv, so'rov, respondent, baholash, iste'molchi.

Аликариева Аълохон,
к.соц.наук, докторант кафедры «Социология»
Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека,
e-mail: alohon77@ya.ru

ПРОБЛЕМЫ ВНЕДРЕНИЯ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

Развитие растущей системы интеграционных процессов и информации до международного уровня в условиях глобализации, резкое изменение отношения к социальному управлению в результате усиления конкуренции в сторону полезного повышает социальную адаптацию в системе управления. Совершенствование управления социальными процессами требует совершенствования системы сбора путем воспроизведения и анализа информации образовательной системы в современных условиях. Функционирование в условиях стремительно меняющегося сегодняшнего рынка требует нового взгляда на вопрос

управления качеством. Развитая конкурентная среда, в свою очередь, приобретает важное значение в определении конкурентоспособности поставщиков товаров и услуг, требующих постоянного повышения их качества. В статье автором рассмотрены особенности системы менеджмента качества в механизме управления высшими учебными заведениями; соотношение между ожидаемыми результатами ее внедрения и реализации, а также проведено социологическое исследование и представлены результаты анализа с целью изучения отношения профессорско-преподавательского состава и персонала вуза к данному ресурсу управления.

Ключевые слова: качество, менеджмент, система, высшее учебное заведение, преподаватели, менеджмент, опрос, респондент, оценка, потребитель.

Alikarieva Alohon,
Candidate of Social Sciences,
doctoral student of the Department of Sociology
of the Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan,
e-mail: alohon77@ya.ru

PROBLEMS OF IMPLEMENTATION OF THE EDUCATIONAL QUALITY MANAGEMENT SYSTEM

ABSTRACT

The development of an increasing system of integrative processes and information to an international level in the context of globalization, the sharp change in the attitude towards social management of increased competition towards useful increases social adaptation in the management system. The perfection of social process management requires the improvement of the collection system by reproducing and analyzing the information of the educational system in the current conditions. Functioning in today's rapidly changing market requires a new look at the issue of quality management. A developed competitive environment, in turn, becomes important in determining the competitiveness of suppliers of goods and services that require constant improvement of their quality. In the article, the author examines the features of the quality management system in the management mechanism of higher education institutions; the relationship between the expected results of its implementation and implementation, as well as conducted a sociological study and presented the results of the analysis in order to study the attitude of the faculty and staff of the university to this management resource.

Keywords: quality, management, system, higher education institution, teachers, management, survey, respondent, assessment, consumer.

KIRISH

So‘nggi yillarda mamlakatimizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar nazariy va amaliy xarakterga ega bo‘lgan va ta‘lim tizimini rivojlantirish uchun juda muhim bo‘lgan bir qator munozarali va dolzarb muammolarni ochib bermoqda. Hozirgi jamiyatimizni o‘zgartirish sharoitida ta‘lim sifatini boshqarish nazariyasi, metodologiyasi va amaliyoti masalalari ustuvor masalalarni o‘z ichiga oladi. Ta‘limni boshqarishning ilmiy asoslarini izlash, istiqbolli yondashuvlar, keng ko‘lamli ta‘lim faoliyati respublikamiz ta‘lim tizimini modernizatsiya qilishning asosiy vazifalaridan biridir.

Ta‘lim sohasidagi boshqaruv faoliyatining ma‘nosi ijtimoiy buyurtmaning ta‘lim tizimining salohiyatiga mos kelishini ta‘minlashdan iborat. Hozirgi kunda ta‘lim sifati, uning maqsadlari ta‘limdan tashqari tizimlar – davlat, jamiyat, iqtisodiyot va ish beruvchilar tomonidan belgilanadi. Ta‘lim xizmatlari bozoriga moslashishi kerak bo‘lgan ta‘lim tizimini sotsial boshqarishning o‘zgacha strategiyasiga ehtiyoj tug‘ildi. Ta‘lim tizimini isloh qilish, uning sifatini oshirish bo‘yicha turli ishlanmalar, boshqaruvni takomillashtirish chora-tadbirlari shunga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Prezidentimiz tomonidan 2023-yilga “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim”, deb nom berilishi [1], yurtimizda barcha islohotlar zamiri “Inson qadri uchun” degan tamoyilga asoslanishini yana bir bor

isbotladi. Bugun mamlakatimizda ilm-fanning rivojlanishi, yurtimizning zamonaviy texnologiyalar asosida ravnaq topishida ta'lim tizimiga e'tiborni kuchaytirish eng dolzarb masala hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Jamiyatni maqsadli boshqarish xalqimiz tabiatiga o'tmishdan salbiy meros sifatida o'tgan irratsionalistik kayfiyatlardan, ya'ni voqelikni chuqur his etmaslik, yuz berayotgan jarayonlar, o'zgarishlarni, tashqi va ichki xavflarni anglab yetmasdan g'aflatda yashayverishdan ishonchli muhofaza ham etadi, deb fikr yuritadi o'z risolasida mashhur sotsiolog olim M.B.Bekmurodov [2]. Shuningdek, davlat va jamiyat boshqaruvida kompromiss emas, balki konsensus nazariyasiga tayanilmoqda. Ijtimoiy munosabatlarda konsensus, ya'ni hamjihatlik, yakdillik nazariyasi odamlarning ko'tarinki ruhiyatini ta'minlovchi ijtimoiy-ma'naviy muhitni barcha oila, mahalla, korxon va tashkilotlarda shakllantirilish talabi sifatida namoyon bo'lmoqda va bu talab keng ko'lamli ijtimoiy harakatga aylanmoqda [3]", deya ta'kidlaydi M.B.Bekmurodov.

Respublikamiz taniqli sotsiologlaridan yana biri A.Xolbekovning [4] fikricha, boshqaruv – ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan faoliyatdir, u eng kam vosita (vaqt, kuch va zahiralalar) sarflab, eng yuqori natijaga erishish bo'yicha aniq maqsadli, rejali va ongli ravishda tashkil etilgan hamda nazoratni talab etadigan aqliy faoliyatdir. Ommani maqsadli boshqarish va bu jarayonlarni milliy manfaatlar hamda umuminsoniy tamoyillar mutanosibligi negizida amalga oshirish mamlakatning umumiy intellektual va estetik, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, siyosiy va axloqiy barqarorligiga mustahkam zamin yaratadi.

Mamlakatimizda menejment fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olimlardan M.Sharifxujayev, Yo.Abdullaevlar boshqaruv – bu o'ziga xos yuksak san'at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov asosida qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilishdir, deb ta'kidlab, quyidagicha ta'rif beradi: “boshqaruv - bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir” [5]. Akademik S.S.G'ulomovning fikricha, “menejment – maqsadga muvofiq boshqaruv usuli yoki mehnatni samarali tashkil qilishga yo'naltirilgan boshqaruvdir. Hozirgi davrda menejment – boshqaruvga qo'yiladigan turli talablarni, ya'ni ish usuliga, ishni olib bora olish qobiliyatiga, odamlar harakatini birgalikdagi faoliyatda to'g'ri yo'naltirish san'ati va fanga qo'yiladigan talablarni qattiq, ma'muriy talabisiz belgilangan maqsadning bajarilishini o'zida aks ettiradi” [6].

Iqtisodchi olimlardan biri M.X.Saidov [7] o'z risolasida boshqaruv faoliyati o'z mohiyati va tavsifiga ko'ra jamiyat hayotida aqliy tartibga solish ahamiyatiga ega ekanligini ta'kidlaydi. Insoniyat fan-texnika, iqtisodiyot va ijtimoiy yutuqlarini qanchalik ko'paytirib borsa, boshqaruv faoliyatining shunchalik ilmga bo'lgan talabi to'xtovsiz oshib borishi sodir bo'ladi. «Boshqaruvning mohiyati – obyektiv va subyektiv sharoitlarini qo'yilgan maqsadga erishishga imkon beradigan nisbat va munosabatda bo'lishini ta'minlashdan iborat», deb fikr yuritadi.

M.X.Saidov zamonaviy rahbarning muhim boshqaruv maqsadi o'z xodimlarini axloqiy jihatdan yuksak darajaga ko'tarish, ularni ma'naviy jihatdan sog'lom jamoaga aylantirishdan iborat bo'lib, boshqaruv bu hamisha hukmronlik, insonlar ustidan amr etishlik imkoni, lekin hokimlik oqilona bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Har qanday tashkilotning me'yorda faoliyat ko'rsatishi boshqaruv tizimidagi hokimiyatni to'g'ri taqsimlashga bog'liq. Boshqaruv tizimidagi tartibga tushirilgan maqomlar istalgan tuzilmaning me'yorida faoliyat ko'rsatishining muhim sharti, - deb hisoblaydi.

G'.M.Qosimovning fikricha, “menejment – bu boshqarish orqali ishlarni amalga oshirish, ishbilarmonlar qanday ish yuritishini o'rgatish, yangi boshqarish tafakkurini shakllantirishdir. Menejment deganda firmalarning maqsadiga erishishlarini tashkil etish, rejalashtirish, nazorat qilish, tashkilot ichidagi o'zaro ta'sir etishni muvofiqlashtirish, firma salohiyatidan foydalanish orqali jarayonlar, munosabatlar, harakatlarni amalga oshirish kabilar anglanadi” [8].

Pedagoglardan R.X.Djuraev, S.T.Turg'unovlar “ta'lim menejmenti – bu ilmiy asosda tashkil etilgan, o'ziga xos pog'onaviylikka asoslangan boshqaruv: rahbar, pedagogik jamoa, ta'lim oluvchilar jamoasi. Shunga ko'ra boshqaruvni turli xil modellar asosida amalga oshirish mumkin: integral model, birinchi pog'ona – pedagogik jamoa faoliyatini boshqarish, ikkinchi pog'ona – o'quvchilar faoliyatini boshqarish” [9] ekanligini ta'kidlaganlar.

Demak, menejmentni belgilangan maqsadlarga erishiladigan asosiy faoliyatni tashkil etishni ta'minlaydigan alohida faoliyat turi sifatida tushunish mumkin. Menejment umumiy faoliyat bilan bog'langan bir nechta elementlar (insonlar, tashkilotlar) mavjud bo'lganda paydo bo'ladi va bunday faoliyatning ma'lum bir umumiy maqsadi mavjud. Ta'lim sifatini boshqarish tartibga solish, sifat xususiyatlarini saqlab qolish, takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida ta'limga ta'sir qilishdan iborat.

Ta'lim sifatini boshqarishning muhim xususiyati shundaki, u o'quv jarayonidan alohida amalga oshiriladigan maxsus faoliyat turidir. Shuningdek, bu shuni anglatadiki, ta'lim tizimini boshqarish uchun o'zining munosabatlar tizimi va hal qilinadigan vazifalariga (boshqaruv funksiyalari) ega bo'lgan maxsus tashkilotlar (boshqaruv tuzilishi) yaratiladi.

Menejment zarurati boshqariladigan tizimning jadalligi bilan bog'liq. Menejment nazariyasiga oid adabiyotlarda ta'kidlanganidek, agar biron bir tizim doimo bir xil holatda bo'lishi mumkin bo'lsa, unda boshqaruvning hojati yo'q. Menejmentning ma'nosi jadal tizimga ma'lum o'zgarishlarni amalga oshirish uchun maqsadli ta'sir qilishdan iborat. Refleksiv boshqaruv muammolari T.M.Davydenko, B.C.Lazarev, M.M.Potashnik, P.I.Tretyakov, T.N.Shamova asarlarida yoritib berilgan [10].

Ta'limni, xususan, ta'lim muassasini refleksiv boshqarish jarayoni va shaxsning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar bilan bog'liq bo'lib, unda harakatlarning ma'nosi ro'yobga chiqadi, maqsadli transformatsion faoliyat zarurati amalga oshiriladi. O'z-o'zini chuqur anglash quyidagi jarayonlarning rivojlanishiga olib keladi: "o'zini o'zi anglash-o'zini namoyon qilish-o'zini o'zi tasdiqlash-o'zini o'zi ifoda etish-o'zini o'zi boshqarish". Ta'lim muassasining rivojlanishini boshqarish jarayonida konsalting faoliyatini tashkil etishda tahlil va diagnostika qilish muhim ahamiyatga ega, ular asosida konsalting jarayoni yoki ta'lim muassasini rivojlantirish loyihasi rejalashtiriladi va tashkil etiladi. Bunda refleksiv boshqaruv o'zini o'zi tahlil qilishga, o'zini o'zi baholashga asoslanadi. Professor-o'qituvchilar o'z faoliyatlari natijalarini tashqi ekspertlar tomonidan muassasa faoliyatini tahlil qiladigan ko'rsatkichlar bo'yicha aniq baholashlari kerak bo'ladi.

So'nggi yillarda ta'lim sifatini boshqarishning mohiyatini belgilovchi ta'lim sifati menejmentini rivojlantirishning eng muhim tendensiyasi tizimli yondashuv bo'lib, u nafaqat uslubiy tadqiqotning bir turi, balki murakkab dinamik muhitda yaxlit va majmuaviy ta'lim boshqaruvini taqdim etish imkonini beradigan boshqaruv tafakkurining zamonaviy usuli sifatida qaraladi.

ASOSIY QISM

Sifat menejmenti tizimi – bu oliy o'quv yurtlari faoliyati parametrlarining belgilangan talablarga muvofiqligini ta'minlash uchun xodimlarning o'zaro hamkorligini muvofiqlashtirish uchun mo'ljallangan standartlarni ishlab chiqish va ularning bajarilishini nazorat qilish orqali harakatlarni rasmiylashtirishdan iborat ma'muriy-boshqaruv vositasidir. Demak, ta'lim xizmatlari sohasi sifatida ta'lim olish har qanday oliygohning asosiy, maqsadli tarkibiy qismi, ular ta'lim xizmatlarini taqdim etadi. Shu munosabat bilan oliygohning ta'lim faoliyatini baholashning eng muhim mezonidir.

Sifat menejmenti tizimi (SMT) mohiyatini ko'rib chiqar ekanmiz, ushbu boshqaruv resursining mazmuni, uning ijtimoiy maqsadi, shakllanish tarixi, amalga oshirish shakllari va usullarini aniqlashimiz kerak. Bu esa ushbu resurs oliy ta'limga qanchalik qo'llanilishi kerakligini aniqlashga imkon beradi.

Iqtisodchi-olimlarning fikriga ko'ra, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish jarayonining doimiy yaxshilanishini, ham mahsulot, ham butun tashkilotning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni ta'minlaydigan tashkilotlarni boshqarishning samarali tizimini joriy etish zarurati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy "boshqaruv tizimi nafaqat o'zgaruvchan vaziyatga javob bera olishi va yo'l qo'yilgan noto'g'ri hisob-kitoblarni tuzatishi, balki kompaniyaning rivojlanish sur'atlarini oshirishi kerak" [11].

Sifat menejmenti tizimining shakllanishi va rivojlanishini tahlil qilish asosida ba'zi qonuniyatlarni aniqlashimiz mumkin bo'ladi. SMTni mikro va makrosotsiologik darajada ko'rib chiqamiz. Mikrosotsiologik daraja – bu bitta alohida olingan korxonada sifat tizimini joriy etishdir. T.V.Grexova o'zining sotsiologiya bo'yicha dissertatsiya ishida quyidagilarni ta'kidlagan: "zamonaviy tashkilotlar muvaffaqiyatli va hayotga chidamli bo'lish maqsadida doimo o'zlarini

rivojlantirish yo'llarini izlaydilar va hozirgi vaqtda tashkiliy rivojlanishning eng universal usullaridan biri bu sifat menejmenti tizimi (SMT) hisoblanadi. Tashkilotda yaxshi tuzilgan va samarali ishlaydigan SMT – bu biznes tashkilotining umumiy samaradorligini oshirish va natijada tovarlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ishlab chiqarilgan mahsulotlar narxini kamaytirish va tannarxni pasaytirish imkoniyatlarining kuchli vositasidir. Shu sababli, sifat menejmenti tizimini yaratish va doimiy takomillashtirish kompaniyani muvaffaqiyatga olib keladigan eng muhim raqobat afzalliklaridan biridir va uning bozordagi mavqeini mustahkamlash tashkilotga o'z xodimlarining farovonligini oshirishga, ijtimoiy kafolatlarni ta'minlashga imkon beradi va pirovardida bu orqali ularning kelajakka ishonchini oshiradi" [12].

Shunday qilib, sifat menejmenti tizimi (SMT) tarkibini quyidagi ikkita asosiy quyi tizimga keltirish mumkin:

- me'yoriy-nazorat quyi tizimi, uning doirasida oliy o'quv yurti faoliyati uchun zarur bo'lgan hujjatlarni (asosiy jarayonlar va faoliyatni tavsiflovchi standartlar va qoidalarni, ishlab chiqilgan me'yorlarning bajarilishini nazorat qilish) tayyorlash amalga oshiriladi;

- aloqa va muvofiqlashtirish quyi tizimi, u asosiy funksiyalarini amalga oshirish jarayonida xodimlar va bo'linmalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning to'g'ri tartibini, oliy o'quv yurti ma'muriyati va uning xodimlari o'rtasidagi teskari aloqalarni ta'minlaydi.

Har qanday boshqaruv tizimi nafaqat rasmiy ko'rsatkichlar va faoliyat natijalarini hisobga olishi kerak, balki uning haqiqiy mazmunini tahlil qilishga murojaat qilishi kerak. Oliy o'quv yurtlarida sifat menejmenti haqida gap ketganda, sifatni obyektiv baholash va umuman, boshqaruv samaradorligini faqat zarur hujjatlarni tekshirish natijalari, tegishli o'quv-uslubiy hujjatlar to'plamining mavjudligi va boshqalar asosida olish mumkin emasligi aniq, sifat mezonlarini aniqlashga kompleks yondashuv zarur.

Bizning tajriba tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, oliy o'quv yurtlari boshqaruv tizimiga sifat menejmenti tizimini joriy etish va amalga oshirish uchun jiddiy qiyinchiliklar mavjud. Tadqiqot natijalarini sarhisob qilar ekanmiz, shuni ta'kidlash mumkinki, oliy ta'limda sifat menejmenti tizimini yaratishga bir nechta omillar to'sqinlik qilishi mumkin. Tadqiqotdan maqsadimiz, professor-o'qituvchilar va mutaxassislarining universitetdagi sifat menejmenti tizimi mazmuni va samaradorligini baholashiga, shuningdek, ularning ushbu boshqaruv resursiga va uni oliy ta'lim muassasalarida joriy etish istiqbollariga bo'lgan munosabatiga aniqlik kiritishdan iborat edi.

Biz o'z oldimizga qo'ygan vazifalarimizdan biri, professor-o'qituvchilardan universitetda sifat menejmenti tizimi samaradorligini baholash bo'yicha ma'lumotlarni olish, xorij oliy ta'limi tajribasi va an'analarni hisobga olgan holda, mahalliy o'ziga xosliklar nuqtai nazaridan, SMTni optimallashtirish va uni oliy o'quv yurtlarida joriy etish istiqbollarini belgilashdir [13].

Tadqiqot respublikamiz oliy o'quv yurtlarida 2022 yil mart-oktyabr oylarida o'tkazildi. Tadqiqotda oliy o'quv yurtlaridan 612 ta respondent qatnashdi. So'rov anketasi 25 ta savoldan iborat bo'lib, unga asosan unversitet haqida va unda sotsial, iqtisodiy va boshqa sharoitlar, ya'ni professor-o'qituvchilarning dars jarayoniga munosabatlari, universitetdagi ta'lim sifati, ta'lim jarayonidan qoniqish darajasi va sifat menejmenti tizimi va uning samaradorligini baholash bo'yicha muammolar kiritildi.

Respondentlar orasida universitetda 15 yildan ortiq ishlab kelayotgan professor va dotsentlarning 74 foizi, ish stajlari 5 yil va undan ortiq bo'lgan o'qituvchi va katta o'qituvchilarning 26 foizi ishtirok etdi. Respondentlarning yoshi quyidagicha bo'ldi: yosh o'qituvchilar (35 yoshgacha) – 46,5%, 35 yoshdan oshgan "yetuk" o'qituvchilar – 53,5%. Erkaklar va ayollar mos ravishda 38% va 62% ni tashkil etdi.

Professor-o'qituvchilardan va xodimlardan sifat menejmenti tizimi haqida so'ralganda, ulardan 45% habari borligini va qolgan 55% qisman ma'lumotga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Professor-o'qituvchilar yangi boshqaruv resursiga bo'lgan ehtiyojni to'liq baholay olishlari uchun ularni ushbu sohadagi tajriba bilan tanishtirish, mohiyatini tushuntirish va ushbu resursning samarali ishlashi uchun nima qilish kerakligini ko'rsatish kerak bo'ladi. Aksariyat nazariyotchilar tashkilotda SMTni joriy etish jarayoni treningdan boshlanishi kerakligini ta'kidlaydilar. Innovatsiyalarni rad etish, ko'pincha, ularning mohiyati va maqsadini noto'g'ri tushunish bilan bog'liq. Ta'lim

muassasalariga SMTni joriy etishning dastlabki bosqichida uning mohiyatini o'rgatish jarayoni ko'pincha majburiy asosda amalga oshiriladi. Majburiy omil g'oyaning o'zini rad etishga olib kelishi mumkin.

So'rov natijalarini sarhisob qilish shuni ko'rsatdiki, SMT bo'yicha ma'lumotga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar, xodimlar, umuman olganda, SMT yutuqlarini ijobiy baholadilar va juda aniq va qiziqarli javoblarni shakllantirdilar, chunki respondentlarda ochiq savollarga javob berish imkoniyati ham mavjud edi.

“Sizningcha, sifat menejmenti tizimi (SMT)ga universitetda boshqarishning muqobil resurslari bormi?” degan savolimizga respondentlardan quyidagi javoblarni oldik: “hozirgi kunda SMTga muqobil yo‘q” – 20%, “SMT an'anaviy boshqaruv usullari bilan bir qatorda qo'llanilishi mumkin” – 50%, “universitetda an'anaviy (vaqt sinovidan o'tgan) boshqaruv usullaridan foydalanish yaxshiroqdir” – 15%, “universitet SMTsiz ham yaxshi faoliyat yurita olgan va yurita oladi” – 12%, qolgan respondentlar esa javob berishga qiynalishgan. Qayd etish joizki, 15 yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar oliy o'quv yurtida SMT mavjudligi zarurligini butunlay inkor etishgan. Bundan tashqari, bizning fikrimizcha, universitetda SMTni joriy etish istiqbollari ko'proq yosh o'qituvchilar va universitet xodimlari tomonidan ijobiy baholangan.

Respondentlarga “Sizningcha, respublikada oliy ta'limni isloh qilish jarayonlari OO'Yuda sifat menejmenti tizimini joriy etish bilan qanday bog'liq?” degan savol bilan murojaat qildik. Javoblar turlicha bo'ldi: so'rov ishtirokchilarining 36% “to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir, chunki SMTni amalga oshirish dunyo ta'lim standartlarining majburiy talabidir”, 22% “bir-biriga bog'langan, chunki SMTni joriy etish jahon hamjamiyatining oliy o'quv yurtlariga talabidir va biz ham dunyo oliy ta'lim makoniga integratsiyalashmog'imiz zarur”, 13% “qisman bog'liq, chunki SMT ta'lim sifatini yaxshilashga imkon beradi”, “unchalik bog'liq emas, chunki ta'lim sifati universitetdagi SMT bilan uzviy bog'lanmagan”, 6% “umuman bog'liq emas” deya javob berishgan bo'lsa, qolgan 1% respondent esa javob berishga qiynalishgan. Respondentlarning ko'pchiligi respublikada oliy ta'limni isloh qilish jarayoni universitetda SMTni joriy etish bilan bog'liq ekanligiga ishonchi komil.

Anketa so'rovining asosiy savollaridan yana biri “Sizningcha, universitetdagi SMTdagi ‘iste'molchilar ehtiyojini qondirish” nimani anglatadi? deb nomlangan bo'lib, 41% respondent “iste'molchilar yuqori malakali mutaxassislariga ega bo'ladi”, 35% respondent “talaba, ota-onalar, ish beruvchi, davlat sifatida iste'molchilar oliy ta'lim sifatiga e'tirozga ega emas”, 22% respondent “bu iqtisodiyot sohasidan olingan atama bo'lib, ta'lim bilan bog'liq bo'lishi mumkin emas” deya javob bergan, 2% respondent esa javob bermagan. Iste'molchi bugungi kunda universitet uchun uning taqdiriga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan o'ziga xos ko'rinmas kuchni anglatadi. Darhaqiqat, oliy ta'lim sohasi uchun SMTdagi iste'molchi ish beruvchi, davlat va umuman jamiyat, shuningdek, talaba va uning ota-onasi sifatida tushuniladi. Respondentlarning 22% berilgan savolga javob berar ekan, shubhasiz, oliy ta'limda “iste'molchi” atamasi qo'llanilishi kerak, degan fikrga qo'shilmaganlar. Axir, ta'lim, o'qitish, dunyoqarashni shakllantirish haqida gap ketganda, ushbu jarayonlarni “iste'molchi” tushunchasi bilan bog'lash qiyin. Bizning fikrimizcha, bu zamonaviy sharoitda ta'lim xizmat sifatida talqin qilinishi bilan bog'liq. Biroq, yuqorida biz bunday talqinni mazmunli xususiyatlar bilan to'ldirish kerakligini ta'kidlagan edik.

Respondentlarga “Sizningcha, universitetda SMTni joriy etishga qanday omillar salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin?” degan savol berdik va quyidagi javoblarni oldik: “universitetda SMTni joriy qilish uchun oliy ta'lim tizimiga moslashtirilgan metodologiya yo'q” – 41%, “universitet rahbariyati va xodimlarining SMT sohasida bilimlarining yetishmasligi” – 38%, “universitetning SMTni joriy etishga tayyor emas” – 56%, “universitet rahbariyati va xodimlari o'rtasida uzviy aloqaning yo'qligi” – 28%, “javob berishga qiynalaman” – 5%, “boshqa omillar” – 2%. Bu savolga javobda mutaxassislarni biron bir omilni tanlashda cheklab qo'yilmadi. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilib, yuqoridagi barcha omillar u yoki bu darajada universitetda SMTni joriy etishga ta'sir qilishi mumkin, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Universitetlarda SMT standartlarini bevosita qo'llashda ma'lum qiyinchiliklar mavjud, albatta. Ishlab chiqarish korxonalarini uchun ishlab chiqilgan SMT standartlari tizimi tegishli ta'lim sohasining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilmagan va unchalik rivojlanmagan. Yana shuni ta'kidlaymizki, ta'lim haqida gapirganda, bu ijtimoiy hodisaning mohiyati

va maqsadini tushunish kerak. Uning natijasi texnik mahsulot emas yoki jonsiz narsa emas, balki intellektual jihatdan tayyorlangan madaniy va ma'naviy jihatdan shakllangan shaxsdir.

Universitet rahbarlari va xodimlarining SMT bo'yicha bilimga ega emasligi ham to'siq bo'ladi. Universitet rahbariyati universitetda SMTni joriy etishning mazmuni, maqsad va vazifalaridan xabardor bo'lishi va o'zining sifat g'oyalari g'a sodiqligini shaxsan ko'rsatishi kerak. Bundan tashqari, universitet xodimlari ham SMT haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak, chunki bilimsizlik universitet xodimlari tomonidan yangi boshqaruv usullarini rad etishga olib keladi. Sifat menejmenti tizimi tashqaridan kiritilmasligi kerak, u universitetda butun jamoa ishtirokida yaratiladi.

Respondentlarga "Universitetda SMTning joriy etilishi ta'lim sifatini yaxshilashga ta'sir qiladimi?" degan savol bilan murojaat qilganimizda, ularning 10% "albatta ta'sir qiladi", 31% "ta'sir qiladi, chunki SMT iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan", 39% "faqat qisman ta'sir qiladi, chunki ta'lim sifati faqatgina universitetda boshqaruv qanchalik samarali ekanligiga bog'liq emas", 12% "ta'sir qilmaydi, chunki barcha jarayonlarni rasmiylashtirish va hujjatlashtirish ta'lim sifatini yaxshilay olmaydi", 7% "umuman ta'sir qilmaydi" deb belgilashgan bo'lsa, qolganlar esa javob berishga qiynalishgan.

Ta'lim sifati har kim tomonidan turlicha qabul qilinadi. Ba'zilar ta'limning asosiy sifati iste'molchilar ehtiyojini qondirish, deb hisoblasa, boshqalari buni shakllangan kasbiy va umumiy madaniy kompetensiyalarning mavjudligi, deb bilishadi. Ushbu maqolada biz aholining ta'lim sifatiga munosabatini aniqlash maqsadida o'tkazilgan sotsiologik so'rovlar ma'lumotlarini keltirdik. Bizning so'rovimiz ushbu konsepsiyaning ko'p qirrali va ko'p qiymatligini tasdiqladi. Bu respondentlarning berilgan savolga bergan javoblarida ham o'z aksini topdi.

XULOSA

Oliy ta'lim jamiyatning iqtisodiy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishining eng muhim omillaridan biridir, chunki iqtisodiy va ijtimoiy o'sishni jadallashtirish uchun mamlakatimizning ilmiy va intellektual salohiyatiga tayanish zarur. Bu, o'z navbatida, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish va jamiyatning ijtimoiy rivojlanishining sharti bo'lib xizmat qilishi kerak.

Zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatga erishish, global ta'lim makoniga kirish uchun oliy o'quv yurtlari yangi boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish masalasini hal qilishlari kerak. Bu ularga raqobatbardosh bo'lish, faoliyati madaniyatini va samaradorligini oshirish imkonini beradi, bu esa universitetning yanada rivojlanishi va farovonligiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda universitetlarni boshqarishda turli xil yondashuvlar mavjud. Samarali boshqaruv vositalariga sifat menejmenti tizimi kiradi, bu ta'lim sohasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, shuningdek, oliy o'quv yurtining mavjud an'analari va tajribasini hisobga olgan holda universitetni innovatsion boshqarishning samarali elementi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bir qator SMT tadqiqotchilarining fikrlarini hisobga olish va to'ldirish orqali faol faoliyat metodologiyasi orqali sifat menejmenti tizimi tushunchasini quyidagicha aniqlash mumkin: bu universitet faoliyati parametrlarining belgilangan talablarga muvofiqligini ta'minlash uchun xodimlarning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish uchun mo'ljallangan standartlarni ishlab chiqish va ularning bajarilishini nazorat qilish orqali harakatlarni rasmiylashtirishdan iborat boshqaruv vositasidir.

O'tkazilgan tadqiqotlarni tahlil qilish oliy o'quv yurtlarida sifat menejmenti uchun zarur bo'lgan quyidagi fundamental tamoyillarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Sifat menejmenti ko'p bosqichli bo'lishi va uning asosiy tarkibiy qismi talabalarni tarbiyalash va rivojlantirish bo'lishi kerak. Bu tamoyil ta'lim sifatini aniqlashning turli usullaridan (testlar, anketalar va boshqalar) foydalanishni o'z ichiga oladi.

2. Sifatni boshqarish dasturlari tadqiqot va natijalar tahlilini o'z ichiga olishi kerak. Natijalar talqin qilinishi, tahlil qilinishi va saqlanishi kerak. Demak, sifat menejmenti kelajakda, vaqt o'tishi bilan farq qiladigan natijalar solishtirilganda ham foydali bo'ladi.

3. Sifatni boshqarish dasturlari real bo'lishi kerak. Ko'rinib turibdiki, sifat menejmenti ko'zlangan maqsadlarga erishish nuqtai nazaridan real umidlardan boshlanishi kerak.

4. Oliy o'quv yurtlarining maqsadlari uning resurslariga mos kelishi kerak.

5. Sifatni boshqarish natijalarining asosiy afzalligi shundaki, u boshqa yo'l bilan mavjud

bo‘lman, ammo qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2022. 20-dekabr.
2. Бекмуродов М.Б., Бегматов А. Миллий менталитет ва раҳбар маънавияти. – Тошкент: Адолат, 2003. – Б. 11.
3. Бекмуродов М.Б. Замонавий бошқарув социологияси//Дарслик. – Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – Б.136.
4. Холбеков А. Бошқарув социологияси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Академия, 2007. – Б. 88-89.
5. Шарифхужаев М., Абдуллаев Ё. Менежмент. – Тошкент, “Ўқитувчи”, 2001. – Б.7.
6. Ғуломов С.С. Менежмент асослари//Дарслик. – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа Акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2002. – 370 б.
7. Саидов М.Х., Перегудов Л.В. “Олий таълим менежменти ва иқтисодиёти. – Тошкент: Молия, 2002. – Б. 3-7.
8. Қосимов Ғ.М. Менежмент: Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 312 б.
9. Джураев Р.Х., Турғунов С.Т. Таълим менежменти//Дарслик. – Тошкент: «Voris-Nashriyot», 2006. – 266 с.
10. Давыденко Т.М. Рефлексивное управление: теория и практика. – М., 2015; Лазарев В.С. Системное развитие. – М., 2017; Поташник М.М. Управление качеством образования. – М., 2014; Третьяков П.И. Адаптивное управление педагогическими системами: Учеб. пособие для студентов вузов. – М., 2018; Шамова Т.И. Педагогический анализ урока в системе внутришкольного управления: Пособие для ФПК директоров сред, общеобразоват. шк. – М., 2018.
11. Демьянович И.В. Интеграция идеи качества в систему управления // Вестник ТОГУ. 2018. № 2 (4). – С. 129.
12. Грехова Т.В. Особенности управления проектами построения системы менеджмента качества в современных организациях: автореф. дисс. ... канд. социол. наук: 22.00.08. – М., 2010. – С. 3.
13. Аликариев Н.С., Аликариева А.Н. Олий таълим сифати менежменти тизимини ривожлантириш концепцияси//“Социология фанлари” (www.tadqiqot.uz\soci) электрон журнали. №1. – Тошкент, 2020. – Б. 7-18. DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1>.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-3

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000